

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Urganch shahar 1-son IMI ning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Yuldasheva Asalxon**  
**Urganch shahar 1-son IMI ning 9-sinf o'quvchisi Sabirova Maftuna Bahodirovna**

## **Muhammad Yusuf she'rlarida sharqona ayol obrazi!**

**Resume:** Ushbu maqolada o'zbek xalq shoiri Muhammad Yusuf she'rlarida ayol-qizlar madhi yoritib berilgan.

**Resume:** In this article, the anthem of women and girls in the poems of the Uzbek folk poet Muhammad Yusuf is highlighted.

**Резюме:** В этой статье освещены женские образы в стихотворениях узбекского народного поэта Мухаммада Юсуфа.

**Tayanch so'z va iboralar:** ayol, o'zbek, turkman, shoir, sevgi va sadoqat, qiz farzand, milliylik, urf-odat.

**Key words and word expressions:** woman, uzbek, turkmen, poet, love and loyatly, daughter, nationality, tradition.

**Ключевые слова и выражения:** женщина, узбек, туркмен, поэт, любовь и верность, дочь, национальность, традиция.

Ona diyor va istiqlol kuychisi Muhammad Yusuf noyob iste'dod egalaridan biri hisoblanadi. Muhammad Yusufning tomirlarida oqayotgan qonning jo'shqinligi uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. U yoshligidanoq she'riyat va adabiyot ixlosmandi edi. Hech bir kitobxon yo'qki, uning javonidan Muhammad Yusufning kitobi topilmaydigan, hech bir inson yo'qki, uning misralaridan mehr-muhabbat hissin tuymagan. O'tgan asrning so'nggi choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo'lchi yulduzdek porlagan Muhammad Yusuf o'zining sodda va samimiy so'zi, o'zigagina yarashadigan she'riyati bilan el nazariga tushdi. U o'zining qisqagina umrida milliy she'riyat va zamonaviy qo'shiqchilikni yuksaklarga ko'tarishiga beminnat hissasini qo'sha oldi. Shoir haqida Erkin Vohidov shunday yozgan edi: "Muhammad Yusufni

xalqimiz sevib dilida saqlaydi, Vatan kuychisi, Istiqlol kuychisi deb ardoqlaydi, o‘zbek eliga ulug‘ mehr, sadoqat singib ketgan nazokatli, samimiyat to‘la she‘rlarini qadrlaydi, qo‘shiq qilib aytadi. Uning she‘riyatini chin ma’noda qanotli she‘riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi, yuraklarga qanot berguvchi she‘riyat desa bo‘ladi”. Uning she‘rlarida nafaqat xalqning quvonch-u iztirobi, orzu va armonlari madh etilgan, balki ayollarimizga bo‘lgan hurmat, e’tirof o‘z ifodasini topgan. Muhammad Yusufning go‘zal o‘zbek va turkman qizlariga bag‘ishlangan “Qiz qo‘shig‘i”, “O‘zbekning ayollari”, “Uch o‘g‘il va bir qiz” qissasi, “Bibi”, “Kumush”, “Turkman qiz”, “Qizg‘aldoq”, “Zebijon”, “Ozoda”, “O‘zbek qizi”, “Singillarim” va yana bir qancha she‘rlari nashrdan chiqqan. Jumladan: Muhammad Yusufning “Qizlar qo‘shig‘i” nomli she‘ri bunga yaqqol misol bo‘la oladi:

Qiz yo‘q uyda sarin sabo esmaydi,  
Qiz yo‘q uyda jambil-rayhon o‘smaydi.  
O‘g‘illarning ota bilan ishi yo‘q,  
Qiz otasin har qadamda eslaydi.<sup>1</sup>

Haqiqatdan ham, qiz farzandlar o‘g‘il farzandlarga nisbatan ota-onasiga mehribon, hamsuhbat bo‘la oladi. Chindan ham qiz bor uyda har doim saranjom-sarishtalik, ozodalik charx urib turadi. Qiz bor uy har doim fayzli, nurli bo‘ladi. Ota-onaga haqiqiy sirdosh do‘st desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Og‘ir kunda ota-ona yonida yelkama-yelka turib tirgak bo‘ladigan inson ham bu, albatta, qiz farzanddir.

Umr daryo, tolega kim kafildir,  
Qizning borar joyi bo‘lak sohildir  
Qiz dardiga yetmaganlar g‘ofildir.

Ayrim otalar qiz farzandli bo‘lgani uchun juda ham afsus nadomatlar chekadilar. Aslida bilmaydilar-ki, Alloh sevgan bandalariga qiz farzand ato etishini! Qiz farzand tug‘ilganida avval ota-onasi uyida ular bilan yashaydi. Keyinchalik umuman tanimagan, bilmagan insonining uyiga borib, ko‘nikib baxtli hayot kechiradi. Ayol zoti kabi sabrli, matonatli, mehribon, oq ko‘ngil inson bo‘lmasa kerak dunyoda.

<sup>1</sup> Muhammad Yusuf. “Shoir sevgisi” to‘plami “Qizlar qo‘shig‘i” she‘ri. 26-bet

Dunyo ko‘rki – shu ko‘zlari shahlolar,  
Qizlar bilan chamanzordir sahrolar.  
Bir qayrilib Qaysni Majnun aylagan,  
Tohirlarni Tohir qilgan – Zuhrolar.

Sevgi va sadoqat bobida ham qizlarga teng keladigani yo‘q. Binobarin: Tohir va Zuhrolar bir-biriga yetishish uchun ne-ne qiyinchiliklarga duch kelishsa-da, ular baribir taslim bo‘lishmadi. O‘zining haqiqiy, sof va sadoqatli muhabbati uchun abadiy kurashishdi va afsuski birga bo‘la olishmadi.

Ayting kimning paymonasi to‘lmagan,  
Qiz bor – ota yot bag‘rida o‘lmagan.  
O‘g‘lim yo‘q deb o‘kinganlar – johillar,  
Hatto Muhammadning o‘g‘li bo‘lmagan!..<sup>2</sup>

Albatta, ota-ona qariganidan so‘ng undagi injiqliklari, xastaliklariga qaraydigan ham, vafotidan so‘ng oxirigacha yig‘lab, azob chekadigan ham bu albatta qiz farzanddir. Alloh suygan bandalariga qiz farzand berishini yana bir marotaba payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V)ning 4 ta qizi bo‘lganligini bunga yaqqol misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Qiz farzanddan orlanib tiriklayin ko‘milgan bir davrda, qizlarini yelkalarida ko‘tarib, Makka ko‘chalarida sayr qildirgan kishining ismi payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V) dir.

Qiz farzandning otaga bo‘lgan mehr-muhabbatini Muhammad Yusufning yana bir ajoyib qissasida ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni, “Uch o‘g‘il va bir qiz” qissasi:

El chayqalib yelkaga  
Tobutni ortgan oni,  
Ozroqqina qarzini  
Eslatdi qadrdoni.  
Muslimga omonatdan  
Ulug‘ farzi ado yo‘q.  
Haloyiq lol. Bu ne hol,

<sup>2</sup> Muhammad Yusuf. “Shoir sevgisi” she‘riy to‘plami: “Qizlar qo‘shig‘i” she‘ri. 27-bet.

Uch o‘g‘ildan sado yo‘q!  
 Ayting, dedi, bas qilsin  
 Akalarim arzini  
 Bo‘y yetgan kun to‘layman  
 Men otamning qarzini.<sup>3</sup>

Juda ham ta‘sirli va hayotiy jumla desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Dostondagi “uch pahlavon” bitta hali voyaga yetmagan singlisichalik mard bo‘la olishmadi. Ya‘ni, uch pahlavon uch pari paykarga qul bo‘ldilar. Bu voqea va hodisalarni kuzatayotgan otaning do‘sti barcha qarzlaridan kechib, uch o‘g‘il va kelinni qishloqdan haydadi. Qiz esa ota makonida yolg‘iz hayot kechirgan bo‘lsada, nomard og‘a-ini bilan yashagandan ko‘ra shu afzal edi.

Muhammad Yusuf nafaqat o‘zbekimning qizlariga bag‘ishlab she‘rlar, qissalar yozgan, balki turkman qizlariga bag‘ishlab ham ijod qilgan. Jumladan: “Turkman qiz” nomli she‘rida haqiqiy turkman qizlari juda ham ajoyib tarzda gavdalantirilgan:

Ko‘zim tushsa yuzlari lov-lov yonadi,  
 Yelkasida qirqta chaman tovlanadi.  
 Kesilmagan kokillari to‘lg‘onadi,  
 Uzun ko‘ylak turkman qizga uylanaman.<sup>4</sup>

Chindan ham Turkman qizlari o‘zlarining milliyligini aslo yo‘qotmagan. Boshqa davlatlar milliy kiyimni faqat tadbir, bayramlardagina kiyishsa turkman qizlari esa har doim o‘zlarining milliy kiyimlarini kiyib sochlarini milliycha turmaklab yurishadi.

U elining urflarini qilmaydi xor,  
 Beshigi hech allasiga bo‘lmaydi zor.  
 Qoshida momosi qo‘ygan o‘smasi bor,  
 Uzun ko‘ylak Turkman qizga uylanaman.

Turkman qizlari haqida gap ketganda, hech ikkilanmasdan milliylik, milliy urf-odatlar to‘g‘risida ayta olamiz. Barcha qizlari qoshida bir xilda chizilgan o‘smalari, boshidagi milliy do‘ppisi-yu, sochidagi o‘rimlari barcha yigitlarni o‘ziga orom etadi.

<sup>3</sup> Muhammad Yusuf. “Biz baxtli bo‘lamiz” she‘riy to‘plami: “Uch o‘g‘il va bir qiz qissasi” 81-bet.

<sup>4</sup> Muhammad Yusuf. “Biz baxtli bo‘lamiz” she‘riy to‘plami: “Turkman qiz” she‘ri 97-bet.

O'g'ildek ne'matni berganda Xudo,  
Davlatni boshingdan sohib suyarkan.  
Qizaloqni bandaga aylasa ravo,  
Jannat eshiklarin ochib qo'yarkan!

Xulosa qilib aytish mumkinki, barcha shoirlar vatan, ona deya kuylashi mumkin-u, ammo ona yurtning maromiga yetkazib, yurakdan kuylay oladigan, xalq dilini biladigan ijodkorgina chin shoir bo'la oladi! Muhammad Yusuf bunga yorqin timsol bo'la oladi deb o'ylayman. Chunki shoir she'rlari odamlar unutib yuborgan milliy qadriyatlarimizni va millatimizni tiklashga, asrab avaylashga chorlaydi.

Xalq shoiri Muhammad Yusuf 2001-yil 30-iyulda dunyodan ko'z yumdi. Garchi u vafot etgan bo'lsada, lekin u odamlar yuragida mangu yashaydi. Muhammad Yusuf xalqning qalbidir!

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf, Muhammad.

Biz baxtli bo'lamiz: [She'rlar to'plami]/Muhammad Yusuf; tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: Nazira as-Salom, Madina Muhammad Yusuf qizi. – T.: Nihol, 2022. – 192 b.

2. Yusuf, Muhammad

Shoir sevgisi / M.Yusuf; tuzuvchi

Nazira as-Salom. – Toshkent: Noshir, 2013. 196 b.

3. Yusuf, Muhammad

Quyoshga qarab oqqan suv: she'rlar/M.Yusuf. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 232 b.